

RIVOJLANGAN MAMLAKLARDА TARBIYAGА PEDAGOGIK YONDASHUV

Abdullayeva Nilufar

Ergashova Navbahor

Soataliyeva Muborak

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti

*Maktabgacha ta'lim yo'nalishi 4-bosqich
talabasi*

Annotatsiya: Tarbiya biz uchun yo hayot-yo mamaot,yo najot-yo halokat,yo saodat-yo falokat masalasidir.Abdulla Avloniy

Kalit so'zlar: ota-bola ziddayti,pedagogik bilim,parvarish,ma'naviy muhit,bozor iqtisodiyoti,raqobatlashish asri.

Har qanday yurtning kuch-qudrati,avvalo,uning xalqi xa farzandlarining salomatligiga bevosita bog'liq.

Ertani o'ylab yashash xayrli.Shuning uchun biz bugunning shukronasi,ertaning umidi bilan yashaydigan millatmiz.Ertaga deb imoratlar quramiz,qizimizning sep sandig'ini to'ldiramiz,banklarga mablag'lar qo'yamiz.Ertaga to'yga deb qo'ylar boqamiz,ertaga deb bog'ekamiz.Shuning uchun bugunimiz kechamizdan,ertamiz bugunimizdan forovon bo'lib boraveradi.

Mustaqillik sharofati ila tarbiya shaxsiy ishdan davlatimizning ustuvor siyosati maqomiga ko'tarildi.Yoshlar tarbiyasida davlatimiz bilan ijtimoiy hamkor,ijtimoiy sherikmiz.Bu masala har birimizning,yetti qo'shnining mahallaning millat,Vatan oldidagi muqaddas burchi deb belgilandi.Endi siz faqat o'zingizni emas,yertti qo'shningizning bolasi uchun ham ota,ham onasiz.Ma'naviy javobgarsiz.Qo'shningizning bolasi diniy ekstrimist chiqsa,bu shaxsan sizga ham isnod.Chunki uning yetti ota-onalaridan biri-Siz.

Endi bobomiz Xorazmiyning "So'z-gul,ish-meva" degan o'gitlarini eslab,bu masalada amalimiz qandayligini o'ylab ko'rsak.

-"Dadam keldila-a-r!

-Bor,bor oyingga!"

Tarbiyani ko'pincha mavhum tushunamiz.Uni "ushlab ko'rish" uchun "parvarish" deb tushunish uchun qulay.Buning uchun aniq ish-biror narsani parvarish qilayotgan odamlardan ibrat olish kerak.Masalan,fermer.Har yil boshida yerimdan,ishlab chiqarishimdan ko'proq daromad olay,deb maqsad qiladi.Har kuni,har soat o'laydi,izlanadi,ishlaydi.Yerni tayyorlab,zo'r

urug'ni topib,ekib,kultuvatsiya qilib,sug'orib,parvarish qiladi.Natija maqsadiga teng bo'lgach,xotirjam dam oladi.

Bola tarbiyasi ham shunga o'xshaydi.Bunda natija nimaga bog'liq?Bu bizning har kunlik pedagogik faolligimiz (yoki pedagogik loqaydligimiz)ga bog'liq.

Pedagogik loqaydli bu bizning eng katta xatomiz.Kelajak uchun yutqazilgan vaqt desak ham bo'ladi.Siz bir e'tibor bering:"Dadasi ishdan kelgan bola dadasingning oldiga yug urib boradi,quchoqlaydi,quvonadi.Ishdan kelgan dadasi esa faqat ko'rishadi,so'ng kiymini almashtiradi,ovqatlanadi,ma'daniy hordiq chiqarish uchun televizor ko'radi yoki qandaydir ish bilan mashg'ul bo'llishga kirishadi.Bola kutadi soatlab dadasi bilan o'ynashni yoki dars tayyorlashni.Dadasini oldiga kelganda esa "oying bilan qila qol" degan javobdan hafsalasi pir buladi.Bu hol faqatgina dadalar bilan emas oyisi,buvisi,buvasi va aka-opalar bilan ham takrorlanishi mumkin.Har doim shu javobni eshitgan bola qaytib oldingizga kelishni xohlamay qoladi".

Har bir ota-onan farzandining bosh tarbiyachisi,birinchi ustozи.bu esa har bir ota-onadan tarbiya to'g'risidagi bilimlarni talab qiladi.Demak,avtomobil boshqarish uchun bilim egallah va haydovchilik guvohnomasini olish qanchalik zarur bo'lsa,farzand tarbiyasida ham bilim kerak.Aks holda qimmatbaho avtomobil boshqarayotgan,lekin haydovchilik guvohnomasi bo'limgan shaxsga aylanamiz.Avtomobil boshqarayotgan guvohnomasi yo'q odam jamiyat uchun qanchalik xavf tug'dirishini hamma yaxshi biladi.Lekin tarbiya to'g'risadagi bilimi yo'q ota-onaning bolalari qanday insonlar bo'lib chiqishadi?Bunday ota-onan avvalo baxtsiz keksalikka,undan keyin o'z farzandlarini baxtsizlikka mahkum qilib qo'yishlari mumkin.Eng yomoni-sifatli tarbiyalanmagan farzandlari tufayli o'z nevaralarini ham taqdir hukmiga topshiradilar.

Sifatsiz tarbiya olgan yigit,qiz o'ziga ham,ota-onasiga,oilasiga ham,eng yomoni,xalqi,Vataniga ham foyda keltirmaydi.Ziyon keltiradi,yo jinoyatchi,yo og'irning ustidan,yengilning ostidan yuradigan odam bo'ladi.Nari borsa,o'zini oilasining ta'minotini eplay olmaydigan landovur bo'ladi.Kim bolasini shunday bo'lishini istaydi?Demak,har bir ota-onan farzandidan umidlari bo'lsa,uni sevishdan oldin pedagogik bilimlarni egallab olishi kerak.Bolani bilimsiz sevish uni baloga aylantiradi.Afsuski,bunga misollar ham ko'p.Badavlat,obro'li oilalar misolida ham ko'rishimiz mumkin.

Abdulla Avloniy tarbiya haqida juda to'g'ri so'zlagan edi:

" Tarbiya biz uchun yo hayot-yo mamot,yo najot-yo halokat,yo saodat-yo falokat masalasiidir".

Albatta,yaxshi tarbiya saodatga yetaklaydi,hayotning og'ir yengilini,past balandini yengib o'tishda yaxshi berilgan tarbiya insonga bir muncha najot bo'ladi.Sabr-toqat,kuch-matonatga ega bo'lishi uchun yaxshi tarbiya topgan bo'lishi kerak.Bola tarbiyasiga yuzaki qarash,doim o'z ishlari bilan band bo'lish,ehtiyojlarni qondirish uchun doimiy ishlab,bolaga vaqt ajratmaslik,o'sib kelayotgan beg'ubor qalbda boshqa tuyg'ular isyonga kelishiga sabab bo'ladi.Mehrsiz,irodasiz bo'lib o'sgan farzand Vatan ravnaqiga ham tayinli hissa qo'shishi dargumon.

Hozirgi zamon ya'ni,raqobat asrida yashar ekanmiz bunda ota-onalarga ham katta bir vazifa bor.Nega desangiz,biz dunyoning eng yuksak rivojlangan mamlakatlari qatoriga chiqib borayapmiz.Bu ishni tezlashtiruvchi muhim shartlardan biri-tarbiya.Yoshlarimizni eng yuksak rivojlangan davlatlarda yashash,ishlash va muvafaqqiyat qozonishga tayyorlash.Dunyoning eng yuksak rivojlangan davlatlari qanday tarbiya orqali bugungi maqomga chiqishdi?Ota-onalar qanday vazifani bajardilar?

Ota-onalar bolalarini bozor iqtisodiyotidagi kuchli raqobatga tayyorlashdi.Bolam, sen o'z kuchingga,o'z aqlingga,o'z imkoniyatlariningga tayanib yashashing kerak.Buning uchun o'z aql,kuch va imkoniyatlarining rivojlanirishing kerak,deb,buning yo'llarini o'rgatishdi,chiniqtirishdi.Boshqa kishilarga (qarindosh-urug',tanish-bilish,hatto ota-onaga ham) tayanish,suyanib yashash,mansabga erishish kabi illat tafakkurdan supurib tashlandi.

Bu nima berdi?Bu har bir yigit-qizni raqobatlarga to'la hayotning kurashlar maydoniga chiqishiga majbur qildi.Yoshlikdan o'z kelajagini o'z qo'llari bilan yaratishdan boshqa yo'l yoq ekanligi bilan yuzma -yuz qilib qo'ydi.Buni ko'rgan yoshlar hech kim "O'qi!"demasa ham,bor kuchini,irodasini sarf qilib o'qiydi.Hech kim "Yangilik yarat!"demasa ham,yangiliklar yarata boshladi.Chunki ular bozor iqtisodiyoti,kuchli raqobatlar sharoitida faqat o'z kuchiga,faqat o'z aqliga,faqat o'z imkoniyatlariga tayanib yashash uchun o'z aqli,kuchi va imkoniyatlarini rivojlanirishga o'rgatilgan,chiniqtirilgan edilar-da.

Agar biz bobolarimizni jahondagi tengdoshlari bilan intellektual,ma'naviy raqobatga tayyorlamasak,ular ojiz bo'lib qoladilar.Shunday bo'lishini aslo xohlamaysiz.Demak,kimning uyida farzand o'sayotgan bo'lsa,unga (sport tilida aytganda)"bo'lajak jahon championi",deb qarasin.Uning rivojlanishiga barcha sharoitni yaratib,bir soat ham vaqtini bekor sarflamasligiga ershishimiz kerak.Ana shunda haqiqatdan

ham har bir O'zbekiston o'g'il-qizi o'z ishi, sohasining championi bo'ladi. Biz esa ustoz, murabbiy, trener sifatida hurmat-izzatlarga sazavor bo'lib yashaymiz.

Barkamol shaxsni tarbiyalsh, biz ota-onalarning eng muhim vazifamizga, joiz bo'lsa hayotimizning asosiy tamoillaridan biriga aylanmog'i kerak.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Vatan tuyg'usi. Toshkent "Ma'naviyat" 2015. Xayriddin Sultonov, Murtazo Qarshiboyeva
2. Bizni birlashtirilgan g'oya. Toshkent 2016. Muhammadjon Quronov.
3. Yuksak ma'naviyat-yengilmas kuch. I. Karimov
4. Internet ma'lumotlari asosida:
www.arxiv.uz
www.kutubxona.uz
Navoiy elektron kutubxonasi.